
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH VA PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK RESPUBLIKA TASHXIS MARKAZI

BAHOLASH MEZONLARI

Ota onalar va o‘qituvchi pedagoglar uchun tavsiya



Toshkent 2022-yil

Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Ilmiy Metodik kengashining 2022-yil 29-martdagi 1-sonli qarori bilan ma’qullangan**.**

Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi direktori **L.R.Gaynutdinovaning** umumiy tahriri ostida

Tuzuvchilar:

K.Jo‘raboyev	Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi direktorining birinchi o‘rinbosari
S.Mo‘minov	Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Inklyuziv ta’lim laboratoriyasi metodisti
G.Alimova	Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Inklyuziv ta’lim laboratoriyasi metodisti

Taqrizchilar:

F.Qodirova	Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti “Maxsus pedagogika” kafedrasi mudiri p.f.d., (DSc), proff
D.Abdullayeva	Toshkent shahar Olmazor tumani 134-sonli umuta’lim maktabi direktori
D.Sharipova	Toshkent shahar Sergeli tumani 55-sonli umumta’lim maktabi boshlang‘ich inklyuziv sinf o‘qituvchisi

Ushbu metodik tavsiya inklyuziv sinflarda ta’lim olayotgan alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilarning o‘qituvchilari hamda ota-onalar uchun mo‘ljallangan.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarorida belgilangan vazifalarni Vazirlar Mahkamasining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarorlarining “Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risida” gi nizomining 1-ilovasiga muvofiq 2021-2022 o‘quv yilidan respbulikamiz miqyosida umumta’lim muassasalarida tajriba sinov tariqasida inklyuziv ta’lim joriy etildi. Bunday birinchi inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflariga o‘quvchilar ular yetti yoshga to‘ladigan yilda qabul qilinadi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim olish huquqini ta’minlash maqsadida umumta’lim maktablari uchun belgilangan yosh me’yoridan ikki yilga oshgan bolalarni qabul qilishga ruxsat etiladi.

Maktabda inklyuziv ta’lim va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflar bolalarning yosh va individual xususiyatlari, aqliy rivojlanishi darajasi, somatik va asab-ruhiy sog‘lig‘i holatiga muvofiq tashkil etiladi. Inklyuziv ta’limni tashkil etish insonparvarlik, umuminsoniy qadriyatlar, bag‘rikenglik, oshkoralik tamoyillariga asosan amalga oshiriladi va inklyuziv ta’limning maqsadi — alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo‘llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to‘siqsiz moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to‘laqonli uyg‘unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o‘rta ta’lim berishni ta’minlashdan iborat deb belgilanadi. Vasifalari esa:

- rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo‘lishni ta’minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;

- jamoatchilik hamda ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar muammolariga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini shakllantirish;

- ta’lim jarayonida sog‘lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;

- barcha o‘quvchilar uchun davlat ta’lim standartlariga muvofiq umumiy o‘rta ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;

- o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko‘nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta’lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta’lim-tarbiya metod va vositalarini qo‘llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash.

O‘quvchilarni inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish hamda chiqarish hududiy xalq ta’limi boshqarmasi huzurida tashkil etilgan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasiga ko‘ra, ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar roziligi bilan amalga oshiriladi. Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya yo‘llanmasi o‘quvchilarni inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilinishiga asos hisoblanadi. Inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarga boshqa ma’muriy-hududiy birlikdan kelib o‘qish istagini bildirgan o‘quvchilar, o‘quvchini qabul qilayotgan maktab joylashgan hududning psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyasi yo‘llanmasiga asosan qabul qilinadi.

O‘quvchilarni inklyuziv ta’lim sinflariga va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish o‘quv yili boshlanguncha hamda o‘quv yili davomida amalga oshiriladi va maktab direktorining buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi. Inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarga yo‘llangan har bir o‘quvchiga ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan shaxsiy hujjatlar yig‘majildi rasmiylashtiriladi va maktab rahbariyatiga taqdim etiladi. O‘quvchining shaxsiy hujjatlar yig‘majildida quyidagi hujjatlar bo‘ladi:

- ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning arizasi;

- psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasi;

- ta’lim olganligi to‘g‘risidagi hujjatlar (ta’lim muassasalarida o‘qiyotgan bolalar uchun);

- o‘qish joyidan ta’limning muddati, o‘quv fanlarini o‘zlashtirishi va xulq-atvori, o‘quvchiga yakka tartibda ko‘mak berish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlarning batafsil tahlili aks ettirilgan ma’lumotnoma va tavsifnoma (ta’lim muassasalarida o‘qiyotgan bolalar uchun);

- o‘quvchining yashash joyidagi shifoxona bosh shifokori tomonidan imzolangan, uning rivojlanishi tarixidan mufassal ko‘chirma taqdim etiladi.

Rivojlangan davlatlar tajribasida inklyuziv ta’limning mohiyati, tashkil etilishi, amalga oshirilishiga ma’lum bir talablar qo‘yilgan. Ushbu qo‘yilgan talablarga, ularni baholash mezonlari ishlab chiqilgan va turli hududiy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda qo‘llab kelinmoqda. Ya’ni har bir mamlakatninig milliy ta’lim tizimlarining o‘ziga xos xususiyati, ulardagi ta’limni rivojlantirishning ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy va boshqa sharoitlaridagi farqlarini hisobga olib chet el integratsiya tajribasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri uzatish imkoniyatini istisno qiladi. Har bir davlat o‘zining mintalitetidan kelib chiqqan holda umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’lim uchun shart-sharoitlar yaratish, inklyuziv ta’lim jarayonini sifati va samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqishi kerak bo‘ladi.

Inklyuziv ta’limni joriy etishning mustaqil, o‘ziga xos usulini izlab topishi, agar topmasa muqarrar ravishda inklyuziv jarayonlarning sifatini tushib ketishi, ota-onalarning ishonchini oqlay olmasligi, bolalar orasidagi sog‘lom ijtimoiy muhitning keskin tushub ketishi, turli xil katta va kichik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu kabi muammolarga yechim topilmasa har bir bolaning barcha bilan birdek barobar ta’lim olishiga to‘sqinlik qilishi, ma’lum ma’noda to‘siq paydo bo‘lish holati kuzatiladi. Masalan, rivojlangan davlatlarda inklyuziv ta’lim jarayoni maktabgacha yoshdan boshlanadi, chunki oilada bir yoki ikki nafar farzandi bo‘lgan ota-ona imkoniyati cheklangan farzandining rivojlanishidagi muammo yoki buzilishlarini sezib mutaxasssislarga ertaroq murojaat qilsa, aniqlangan buzilishlar ustida korreksiya, reabilitatsiya ishlarini olib borib, bolalarni inklyuziv ta’limga tayyorlaydilar.

Shu nuqtai nazardan, inklyuziv ta’lim jarayonini aniqlik bilan to‘g‘ri tashkil qilish kerakki, sog‘lom bolalar alohida ta’lim ehtiyoji mavjud bo‘lgan bolalarning ta’lim ehtiyojlarini qondirishga yordam berishi va shu yo‘l bilan ham ta’lim sifatini shakllantirish, shu bilan alohida ta’lim ehtiyoji mavjud bo‘lgan bolalarning darsga qiziqlashini orttirish, eng muhim xalqaro mezonlariga javob beradigan mezon shakllantirishimiz lozim.

Hozirgi kunda zamonaviy pedagogikada “Ta’lim sifati” deganda xalqaro standartlar darajasida belgilangan hamda chuqur va yuksak natijalar ko‘zda tutilgan, ta’lim ehtiyojlarini qondiradigan, murakkab va ko‘p qirrali jarayonlar xususiyatini o‘zida mujassam qilgan, ta’limning sifat va samaradorligini aniqlab beradigan ko‘rsatkichlar tushuniladi. Shu nuqtai nazardan, inklyuziv ta’lim jarayonni sog‘lom bolalar va alohida ta’lim ehtiyoji mavjud bo‘lgan bolalarning ta’lim ehtiyojlarini qondirishga qodir bo‘lgan ta’limning eng maqbul yo‘lidir. Ana shu maqbul yo‘lni biz sifatini shakllantirsak, eng muhim xalqaro tizim mezonlariga javob beradigan inklyuziv ta’lim tizimini yaratgan bo‘lamiz. Uning sifatini baholashga va muntazam ravishda nazorat qilib yondashish talab qilinadi, chunki har bir ta’lim muassasasining ushbu jarayonning yutuqlari va kamchiliklari, o‘quvchi va o‘qituvchilarning faoliyati, ota-onalarning ta’lim jarayonidagi ishtiroki bolalarning psixologik va jismoniy xususiyatlari kabilar hisobga olinadi.

Ko‘p yillardan buyon erishilgan yutuqlar va tajribalar asosida shakllangan integratsiya va umumiy tamoyillarga va inklyuziv ta’limning o‘ziga taalluqli bo‘lgan tamoyillarga asoslangan zamonaviy xalqaro pedagogikaning inklyuziv ta’limga tegishli qismida, O‘zbekiston tajribasi ham asta-sekin sahnaga chiqmoqda. Rivojlangan davlatlar tomonidan tan olingan eng universal inklyuziv ta’lim uchun yaratilgan baholash mezonlarining orasida o‘ziga xos ko‘lamga ega bo‘lmoqda. Buning natijasida integratsiya jarayonlarining rivojlanish darajasini taqqoslash va baholash mumkin.

Jarayonni baholash: dasturlarning chorak, yil davomida kuzatilgan natijalar va guruhlardan olingan ma’lumotlar, tahlillar asosida amalga oshiriladi. Baholash uchun dastlabki va oxirgi ma’lumotlarni taqqoslash yoki nazorat guruhlari to‘plami asosida amalga oshiriladi. O‘quvchilarning imkoniyatlari, o‘qituvchilaning kompetensiyalarini aniqlashga asoslanadi.

Alohida ehtiyojli o‘quvchilarni inklyuziv ta’limning tashkil etilishi baholash uchun quyidagi mezonlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

● o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari;

● ijtimoiy moslashish darajasi (maktabda qabul qilingan xulq-atvor, tartib qoidalarining qabul qilinishi va rioya qilish darajasi);

● alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolaning maktab, sinf hayotida ishtirok etishi, sinfdoshlari orasida, maktabda do‘stlarining mavjudligi;

● psixosomatik salomatligining dinamikasi.

Inklyuziv ta’lim samaradorligini baholash

- ishlash jarayonidagi baholash usullari va mezonlari;

- inklyuziv amaliyotni amalga oshiruvchi jamoa;

- metodika;

- shaxsning kognitiv sohasini diagnostikasi, ijtimoiy ko‘nikmalar, bolalar va guruh ichidagi munosabatlar.

Ish variantlarida:

- kelajakda maqsad qilib belgilangan vazifalarni bajarish jarayonida yuzaga keladigan turli xil muammolarini aniqlashda fanlarning o‘ni va ularni amaliyot natijasi muhim ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv ta’limni mezonlarini aniqlash va ta’lim maqsadlarini belgilashga qo‘yiladigan talablar;

- inklyuziv ta’limning maqsadlarini, ularning darajasini tahlil qilish belgilaydi;

- zamonaviy ta’lim amaliyotidagi yutuqlar hamda natijalarni baholash mezonlari va parametrlarini ajratib ko‘rsatish;

- inklyuziv amaliyot;

- diagnostika usullarini aniqlash;

- bolalarning bilim doirasi va ijtimoiy ko‘nikmalari;

- inklyuziv ta’lim muhitini diagnostikasi (parametrlarning muvofiqligi);

- guruh ichidagi munosabatlarni o‘rganish;

- inklyuziv sinfda ta`lim beradigan o‘qituvchining kasbiy mahorati, shu jumladan guruhning diagnostikasi;

- ota-onaning munosabati;

- qo‘llaniladigan pedagogik kuzatish usullarining diagnostikasi munosabatlar, nogiron bolaning rivojlanish xususiyatlarini aniqlash inklyuziv ta’lim shartlari;

- natijalarga ko‘ra diagnostika, yutuqlarni ta’kidlab xabarlarni tayyorlash va bolalarning qiyinchiliklari, yordam berish usullarini taklif etish;

- o‘qituvchi talab qiladigan kompetensiyalar to‘plamini tavsiflash, nogironligi bo‘lgan bolalar bilan ishlash;

- amaliyotni amalga oshiradigan o‘qituvchilarning qiyinchiliklarini aniqlash inklyuziyaning yengish yo‘llarini aniqlash;

- ota-onalarning ta’lim bilan birga olib boradigan qiyinchiliklarini aniqlash, inklyuziya sharoitida nogiron bolalarning ota-onalar tomonidan qo‘llab-quvvatlash usullarini aniqlash;

O‘qitish metodikasi variantlari:

• forumlar (forum ishtirokchilari inklyuziv ta’lim yo‘nalishida o‘qituvchilar tomonidan muhokama qilinadigan muammolar va professional rivojlanish istiqbollarini o‘z ichiga oladi) tashkil qilish;

• axborot vositalari orqali inklyuziv ta’lim haqida doimiy ma’lumotlar berib borish;

• tele ko‘rsatuv (dastur turini tanlash orqali uni belgilash, harakat va rollar, ishtirokchilar bilan inklyuziv ta’lim g‘oyalari va amaliyotini ommalashtiradilar) tashkil qilish;

Inklyuziv sinfda o‘quvchilarning egallagan ko‘nikma va malakalarini aniqlash mezoni

1-jadval

	Bolaning sinfda moslashishi	**Kommonikativ ko‘nikma va malaka**	**Korreksion rivojlantirish natijalari**	**Bolaga tolerantli munosabat**

2-jadval

Taqqoslash parametrlari	**Integratsiya**	**Inklyuzivlik**
Maqsad	Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarni hamkorlikdagi faoliyatga qo‘shilishi (o‘yin, o‘quv va boshqa jarayonlar), Bolalarni mavjud muhitga qo‘shilishi va moslashuvi	Bolalarning birgalikdagi hayotiy dunyosi “Bitta maktab hamma uchun”, bir xil muhit yaratish
Asoslovchi omillar	Maxsus pedagogika	Umumiy pedagogika

3-Jadval

Alohida ehtiyojli o‘quvchilarning inklyuziv sharoitda psixologik, pedagogik, tibbiy muhofaza qilishni o‘rganish mezonlarining tarkibiy tuzilishi:

Bosqichlar	**Darajalar**		
	I — sinfda	II — sinfdan tashqari	III — Maktabdan tashqari

1. Muammolar tashxisi, 2. Muammolar tahlili 3.Korreksion reja tuzish 4. Korreksion muammo	Sinf o‘qituvchisi O‘qituvchi (maxsus o‘qituvchi)	Maxsus pedagog, psixolog, logoped	Tibbiy psixologik-pedagogik komissiya yoki maxsus maktab mutaxassisi
5.Natijalar tahlili	Metod birlashma yoki pedagogik kengash	Pedagogik kengash	Tibbiy psixologik-pedagogik komissiya (maktabga berilgan yo‘llanma)

Differensial diagnostika. Muvaffaqiyatli integratsiya va inklyuziya uchun eng muhim shart - bu har bir bolaning aniq differensial diagnostikasi, bu faqat malakali diagnostika xizmati bilan amalga oshirilishi mumkin. Bunday xizmat nafaqat tashxis qo‘yishi, balki tashxisga muvofiq bolani yuborilishi kerak bo‘lgan maktab yoki boshqa ta’lim muassasasi uchun shaxsiy ta’lim rejasi bo‘yicha tavsiyalarni o‘z ichiga olgan xulosasini berishi kerak. Bunday diagnostika faqat barcha zarur mutaxassislar tomonidan taqdim etilgan psixologik, tibbiy-ijtimoiy markazlar yoki psixologik, tibbiy-pedagogik konsultatsiyalar (komissiyalar) asosida amalga oshirilishi mumkin.

Yordam xizmati mutaxassislarining aksariyati muammoni bartaraf etish uchun dasturlar yaratishdan ko‘ra ko‘proq diagnostik tadqiqotlar o‘tkazishga e’tibor berishadi. Mutaxassislarning diagnostika usullari to‘g‘risida xabardorlik darajasi odatda tuzatish usullariga qaraganda ancha yuqori o‘rinda turadi. Murakkab jihati shuki - bu turli sohalar mutaxassislari, o‘qituvchilar, psixologlar, tibbiyot xodimlari tomonidan o‘tkazilgan diagnostika ishlarining uslubiy nomuvofiqligidadir. Ishning murakkabligi jamoaviy ishlayotgan mutaxassislarning

mavjud diagnostik natijalarni bilmasligi natijasida konstruktiv muloqotga tayyor emasligiga duch kelinadi. Bola haqidagi asosiy ma’lumotlarni faqat uning ota-onasi taqdim qilishini esdan chiqarmasligimiz lozim.

Qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirishda bir xil darajadagi muhit diagnostikaning uslubiy muvaffaqiyatsiz chiqishiga sababchi bo‘ladi. Biz yetarlicha to‘liqlik bilan bolaning muammosini “kam rivojlanganlik”, “salbiy omillar”, “yo‘qlik” va hokazolarni o‘rgandik, ammo bir nuqsonning yo‘qligi boshqa analizatorarning faoliyatiga ta’sir qilishini esdan chiqarmasligimiz lozim.

Qo‘llab-quvvatlash samaradorligini baholash.

Qo‘llab-quvvatlash tizimining sematik maqsadi bolani mustaqil izlashi va o‘z rivojlanish muammolarini o‘zi hal qilish usullarini o‘rgatish bilan bog‘liq. Bu texnik xizmat samaradorligini diagnostik baholash muammosini keltirib chiqaradi. Ushbu sohada psixologiyani bolaning ichki dunyosini o‘rganishga emas, balki uning atrof-muhit bilan o‘zaro ta’siri yo‘llarini va tashqi xususiyatlarini tahlil qilishga yo‘naltiradi.

Turli xil patologiyalarga chalingan bolalarning psixologik-pedagogik diagnostikasini takomillashtirish, ikkilamchi og‘ishlarning oldini olish, individual farqlarni o‘rganish, inklyuziv ta’limning istiqbollarini aniqlash, oddiy maktablarda bolalar bilan olib boriladigan pedagogik va psixologik tuzatish ishlari vositalarini tanlash maqsadga muvofiqdir. Diagnostika sinfi (o‘qishning 1-yili). Tibbiy psixologik-pedagogik komissiyada takroriy tekshiruv va psixologik-pedagogik diagnostika dinamikasi, o‘quvchilarning maktabda o‘qish imkoniyatlarini o‘rganish, umuman, inklyuziv ta’limga ilmiy asoslangan, amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuvning juda muhim tarkibiy qismidir. Davlat standartining asosiy talablariga muvofiqdir. Diagnostika sinfida alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarni o‘qitish quyidagilarga yordam beradi:

• bolani maktabga va yangi mashg‘ulotlarga moslashtirish;

• muloqot qobiliyatlarini shakllantirish;

• tuzatish va rivojlantirish sinflari tizimini tashkil etish va amalga oshirish;

• o‘quvchilarning ota-onalari orasida nogiron bolalarning rivojlanish xususiyatlariga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini shakllantirish va ularni normal rivojlanayotgan tengdoshlari muhitiga qo‘shilish uchun maqbul yondashuvlar;

• alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarning haqiqiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda dastlabki akademik bilim va malakalarni shakllantirish;

• bolalar rivojlanishidagi og‘ishlarni tuzatish, individual va differensial yondashuvni amalga oshirish;

• buzilmagan jismoniy va aqliy funksiyalarni ishlab chiqish va faoliyatiga maqbulini kiritish.

Ta’lim standartlari:

Maxsus ta’limning yangi paradiogrammasi va konseptual asoslarini hisobga olgan holda, alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarning turli toifalarini o‘qitish standartini yaratish zarurati tug‘ildi. Inklyuziv ta’limni amalga oshirish uchun moslashtirilgan adaptiv dasturlarni yaratish katta ahamiyatga ega, bu ta’lim tizimining sifatini yaxshilashning umumiy Yevropa tendensiyasiga mos keladi. Maktabda moslashtirilgan adaptiv dasturlar shubhasiz yangilikdir, chunki ular o‘quv dasturlaridan kompetensiyalarga, sinflarning o‘ziga xos mazmunidan asosiy ko‘nikmalargacha aniq o‘tishni ko‘rsatadi. Moslashtirilgan adaptiv dasturlari maktabning bola rivojlanishidagi pedagogik hissasini kuchaytiradi. Ularning yordami bilan o‘quvchilar uchun yakuniy maqsadlar va talablari o‘quv jarayonining barcha ishtirokchilariga ma’lum bo‘ladi. Shuning uchun dasturlarning muhim vazifasi yo‘naltirishdir. Asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan yana bir funksiya tenglashtirishdir, chunki ular maktabni tanlash va o‘quvchilar uchun ta’lim

imkoniyatlaridagi tengsizlikka qarshi kurashishga chaqiriladi, bu esa integratsiya va inklyuziv ta’limning asosiy muammolaridan biri hisoblanadi.

Inklyuziv sinfda bo‘lgan o‘quvchilar bilimini baholashda individual yondoshuv

Inklyuziv ta’lim respublikamizda ayni paytda alohida ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berish imkoniyatini yaratuvchi innovatsion jarayondir. Inklyuziv ta’limning muammolarini ichida, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilimlarini baholash tartibi va qoidalari yetakchilik qiladi. Chunki baholash bu ta’limning asosiy va hal qiluvchi ajralmas qismini tashkil etadi. Bu ta’lim alohida ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilarga individual va moslashtirilgan dasturlar orqali hech qanday qiyinchiliksiz, barcha tengqurlari bilan teng ravishda o‘qish, bilim olish imkonini beradi. Shunga qaramasdan ta’lim jarayonida ayniqsa o‘qituvchi faoliyatida o‘ziga xos muammo va qiyinchiliklar, mavjudligi muqarrardir. Bunda eng avvalo inklyuziv ta’lim jarayonidagi natijalar hamda o‘quvchilar bilimini baholash texnologiyalarini qo‘llash, baholash uslublari asosida amalga oshirilishi vaziyatni me’yorga soluvchi mezon ekanligini yodda tutishimiz lozim.

Inklyuziv sinfdagi muayyan ehtiyojli har bir o‘quvchining bilimini baholash usullari va shakllari asosida baholanishi, moslashtirilgan va individual dastur talablarini amalga oshirilishi, bu dasturlar asosida o‘qitishning erishilgan natijasini belgilaydi.

Inklyuziv ta’lim jarayonida ta’lim natijalarini baholashda o‘qituvchi faoliyati quyidagi mezonlar asosida olib boriladi:

- o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari;
- ijtimoiy moslashish darajasi (maktabda qabul qilingan xulq-atvor, tartib qoidalarining qabul qilinishi va rioya qilish darajasi);
- o‘quvchining maktab, sinf hayotida ishtirok etishi, sinfdoshlari orasida, maktabda do‘stlarining mavjudligi;
- psixosomatik salomatligining dinamikasi.

Inklyuziv ta’lim jarayonida o‘quvchilar bilimini baholash tabaqalashgan yondoshuv asosida amalga oshiriladi. Ta’lim bosqichlariga qarab baholashda diagnostika, analiz va sintez shakli qo‘llanilishi mumkin. Shuningdek, yakuniy baho o‘qish davrida to‘plangan baholarning umumiy natijasi sifatida belgilanadi. Baho faqat mezonlar asosida qo‘yilishi mumkin. Baholashning asosiy mezonlari rejalashtirilgan ta’limni o‘zlashtirish natijalariga asoslanadi. Shu bilan birga baholash mezonlari o‘qituvchiga oldindan beriladi. Ayrim hollarda baholashning umumiy mezonini mayda, mavzular bo‘yicha xususiy mezonlarga bo‘lib chiqish mumkin. Har gal o‘qituvchi qo‘llaniladigan mezonlar haqida bolalar va ularning

ota-onalari, maxsus o‘qituvchini xabardor qilib borishi lozim. Ba’zan ishni baholash faqat o‘qitilgan mavzular asosida bo‘lishi mumkin.

Baholash tizimi shunday bo‘lishishi lozim-ki, unda o‘quvchilar nazorat va baholash jarayonida ishtirok etib borishlari orqali o‘z-o‘zini hamda bir-birini bilimini baholash ko‘nikmalarini egallay oladigan. O‘qituvchi ta’lim jarayonida quyidagilarga rioya qilishi zarur:

- o‘tilgan mavzular bo‘yicha va aniq topshiriqlardan foydalanish;

- topshiriqlarni bosqichma-bosqich tushuntirib borish;

- topshiriqlarni izchillik bilan bajarishga o‘rgatish;

- topshiriqlarni bajarishga oid ko‘rsatmalarni takrorlab turish;

- bajarilgan vazifalarni namoyish qilib borish va rag‘batlantirish.

Ta’lim jarayonida har xil faoliyat turlaridan foydalanish:

- darsda mashg‘ulotlar orasida jismoniy mashqlardan foydalanib turish;

- ovoz va nafas mashqlari ustida ishlash;

- topshiriqni bajarish uchun qo‘shimcha vaqt berish;

- gaplar, so‘zlarda nuqtalar o‘rnini to‘ldirishga oid mashqlar berish;

- o‘quvchini to‘liq mashqning nusxasi bilan ta’minlash;

O‘quvchilarning erishgan natijalari va bilimini baholash usullari:

- bajarilgan ishning hajmi, sarflagan vaqtidan, erishilgan natijalardan kelib chiqib xususiy baholash darajasini belgilash;

- darsda berilgan mavzu materiallari bilan ishlay olmaydigan o‘quvchi bilimini alohida shartlar orqali baholash:

- diqqatni yaxshi baholarga qarata baholash;

-topshiriqni bajara olmagan o‘quvchiga topshiriqni boshqatdan bajarishga imkon berish;

- qayta ishlangan ishlarni baholash.

• muvaffaqiyatga ko‘ra individual baholash shkalasidan foydalanish;

• choraklik ballni chiqarish uchun har kuni o‘quvchining bilimini baholab borish;

• testlarda past ko‘rsatkich bergan o‘quvchining ishini baholash uchun alohida topshiriqlar berish;

• baholashda e’tiborni ko‘proq yaxshi baholarga qaratish;

• o‘quvchi bajara olmagan topshiriqni qayta bajarishga ruxsat berish;

• qayta bajarilgan ishlarni baholash;

• baholashda o‘quvchilarning bilimini baholash bo‘yicha mavjud baholash tizimidan foydalanish.

Inklyuziv ta’limda maxsus o‘qituvchi innovatsion texnologiyalarni qo‘llashi

Innovatsion texnologiyalari maxsus ehtiyojli bolalarni ommaviy ta’lim muassasalariga kiritish hamda ularning vazifalari: Bolaning rivojlanishini, uning o‘qishdagi muvaffaqiyatini nazorat qilish, moslashish muammolarini hal qilish, yordam berish, ixtisoslashgan korresiyalovchi va psixologik yordamni ta’minlaydi. Sog‘lom tengdoshlarini alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar bilan kirishish jarayonidagi muhiti, binobarin, ta’lim sohasida bolalarga ixtisoslashgan tuzatuvchi psixologik yordamning yaxshi tashkil etilganligi hamda yaxshi ishlaydigan infratuzilmasini faoliyat ko‘rsatishi ko‘zda tutiladi.

Ta’lim jarayonida integratsiyaning bir necha turlari mavjud bo‘lib ular: - kombinatsiyalangan integratsiya (turlari bo‘yicha ta’lim);

- Qisman integratsiya (ta’lim va ijtimoiy);

- vaqtinchalik integratsiya (tashqi ko‘rinishida ijtimoiy);

- aralash integratsiya (turlari bo‘yicha ta’lim).

Hozirgi kunda eng samarali va maqsadga muvofiq bo‘lgan quyidagi texnologiyalar mavjud:

Interaktiv texnologiyalar. Bu texnologiya quyidagilarga imkon beradi:

- bolalar guruhdagi tengdoshlari bilan va kattalar bilan aloqani o‘rnatish;

- ta’lim jarayoniga sezilmasdan aralashish;

- mustaqil ravishda o‘zaro berilgan baho bola uchun tushunarli bo‘lishi va uni xolis qabul qilish;

- guruhda turli xil o‘quv vaziyatlarini yaratish (har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda). Buning uchun siz turli xil variantlarni sinab ko‘rishingiz mumkin.

Bundan tashqari, ushbu texnologiyalar o‘qituvchilarga alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilarning xususiyatlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda bolaga mustaqil ravishda o‘quv materialini yaratishga, shuningdek kerakli o‘zgarishlarni iloji boricha tezroq va moslashuvchan qilishga imkon beradi.

Hozirgi kunda zamonaviy kompyuter texnologiyalari masofaviy ta’lim konsepsiyasini butunlay o‘zgartiradi. Darhaqiqat, endi, o‘quvchi sinfdan tashqarida bo‘lishiga qaramay, u nima bo‘layotganini ko‘rishi, eshitishi va ta’lim jarayonida faol ishtirok etishi mumkin. Shuningdek, bunda o‘ta muhim vazifa mutaxassislar, o‘qituvchilar tomonidan o‘quvchilarni doimiy va samarali qo‘llab-quvvatlash va nazoratini amalga oshirish imkonini kengaytiradi. Bolalarni muvaffaqiyatli o‘qitish aynan shularga bog‘liqdir. Shu bilan birga, o‘quv jarayonining barcha ishtirokchilari uchun ko‘p funksiyali interaktiv sensorlar majmuasi yordamida erishish mumkin bo‘lgan qo‘llab-quvvatlash tizimini amalga oshirishga xizmat qiladi. Uning yordami bilan psixofiziologik rivojlanish, korreksiyalash va sensorli integratsiya funksiyalarini rivojlantirish, tuzatish va rivojlanish ishlarini amalga oshirishga qaratilgan turli kompleksli muammolarni hal qilishga imkon beradi. Ya’ni:

1. Ko‘pincha darsda o‘qish paytida bolaga darslikni ochishda, kerakli sahifani topishda, qayerda o‘qishimizni ko‘rsatishda, qayerda o‘qiyotganimizni ko‘rsatishda yordam berish kerak (bolalar diqqatni jalb qila olmaydi) bo‘ladi. Bunday lahzalar har qanday sinfda uchraydi, bu holda bola ba’zi sabablarga ko‘ra darsning borishini kuzatishni istamaydi va tanqidga uchraydi. Inklyuziv sinfda alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar shunchaki darsni kuzataolmaydilar, shuning uchun ularga yordam berilishi kerak;

2. Dars davomida siz topshiriqlarni bajarish vaqtini ko‘proq qilishingiz kerak (agar bu matn uchun savollar bo‘lsa, unda siz 3 ta yoki 4 ta savollarni

muhokama qilishingiz mumkin), shuningdek, matnni to‘liq o‘qimaslik tavsiya etiladi, chunki bolalar juda tez charchaydilar;

3. Savollarga javob berganda, respondentga o‘ylash uchun biroz ko‘proq vaqt berilishi kerak (bolalarning reaksiyasi sekinlashish holati kuzatilishi mumkin);

4. Yozma ish, testlar ancha vaqt talab etadi (o‘qituvchining yordami kerak - daftar toping, daftarni oching, daftar, qalam toping va h.k.). Bunday hollarda alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun vazifani quyidagicha shakllantirishingiz kerak:

- Topshiriq og‘zaki va yozma ravishda tuzilishi kerak;

- Vazifa qisqa, aniq, bitta harakatni ifodalaydigan, bir necha bosqichlardan iborat bo‘lishi kerak;

- Vazifalarni shakllantirishda yakuniy mahsulotni ko‘rsating (tayyor matn, matematik muammoning yechimi va hokazo);

- Vazifani bola bilan birga shakllantiring;

- Bolaga ishni tugatish imkoniyatini bering;

Bolani to‘g‘ri baholashi, matematik amalni bajarishi uchun siz quyidagi jihatlarni hisobga olishni taklif qilishingiz mumkin:

- bolaning salbiy tomonini emas, balki uning yaxshi xulq-atvorini ta’kidlashga harakat qiling;

- intizomning kichik buzilishlariga e’tibor bermang;

- o‘quvchingizning xatti-harakati dori-darmon bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligiga e’tibor bering;

- siz aytganingizdan so‘ng, “to‘g‘ri” so‘zini o‘ylab ko‘ring, qaysi bola noto‘g‘ri ish qilmasligini tushunadi;

- rivojlanish, o‘sishni ko‘rsatish uchun oraliq bahodan foydalaning;

- o‘quvchi yaxshi baho olishi uchun topshiriqni qayta yozishiga, o‘qishiga ijozat bering (keyinchalik qayta ishlangan ish uchun bahoni hisoblang);

- bolaning o‘sishi va rivojlanishini baholashda iqtidori, imkoniyatidan kelib chiqqan holda baholash tizimidan foydalaning.

Agar “alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan” bolaga butun sinf oldida javob berish qiyin bo‘lsa, unda unga tugallangan topshiriqni kichik guruhda o‘rtoqlarining yordamidan foydalanish imkoniyati berilishi mumkin. Guruh ishi bu o‘quvchilarga o‘z tengdoshlarini ochishiga va o‘rganishiga imkon beradi.



Juftlikda ishlash

Juftlikda ishlash o‘zaro birgalikda qo‘yilgan muammoni o‘rganish, birgalikda yechimini yechishda o‘zaro fikr almashish orqali o‘z imkoniyati, xulosasini sinf oldida taqdimot qilishga tayyorlaydi. Shuning uchun bu usul inklyuziv ta’limning yetakchi texnologiyalaridan biri hisoblanadi. Chunki bu vaziyatda har bir o‘quvchi o‘z bilganini ikkinchi o‘quvchi bilan o‘rtog‘i bilan bo‘lishadi, fikrlar ziddiyati vujudga keladi, har biri o‘z fikrini tasdiqlovchi dalil izlaydi, ijod qiladi. To‘g‘ri xulosaga kelgach, sinf oldida dadil javob berishga tayyor bo‘ladi.

Bunda albatta kuchli o‘quvchi bo‘shroq bo‘lgan sherigiga tushuntirib yordam berish holatlari ham bo‘ladi. Bunda bolalar bir-birini o‘qitish jarayoni kechadi. Har ikki holatda ham o‘quvchilarning ijodiy, tanqidiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

Bu holatda ayniqsa e’tiborga molik jihati shundaki, alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchida o‘ziga, o‘z imkoniyatiga ishonchi ortadi va ta’limda yaxshi natijalarga erishadi.



Ta’limda guruhlarda ishlash texnologiyasi

Guruh ishi - bu o‘qituvchining umumiy bitta mavzuni o‘ziga xos vazifalar ustida ishlashda sinfni bir nechta guruhga bo‘ladi. Guruhlarda mavzuga bo‘yicha qo‘yilgan vazifa ustida ishlashini o‘z ichiga olgan darsdagi o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish shaklidir. Bunday jarayon o‘quvchilar o‘rtasidagi muvofiqlashtirilgan o‘zaro munosabatlarni, o‘zaro javobgarlik va hamkorlik aloqalarini rag‘batlantiradi. Ish jarayonida har bir o‘quvchi o‘z fikri, javobini berishi va barcha bitta xulosaga kelguncha o‘z nuqtai nazarini himoya qilish huquqiga ega bo‘ladi. Guruhning hajmi har xil bo‘lishi mumkin. Siz 4-6 kishilik guruhni tashkil qilishingiz mumkin. Bunday guruh kichik guruh deb [illegible] nomlanadi.



Kichik guruhlarda ishlash metodlari va usullari

Kichik guruhlarda ishlash aqliy rivojlanishida muammosi bo‘lgan o‘quvchilar uchun ancha qulayroq, chunki ular kichik guruh sharoitida ancha faollashadi. Bu o‘quvchilar ko‘pincha butun sinf jamoasi oldida gapira olmaydilar va o‘z fikrlarini butun sinf va o‘qituvchi oldida baland ovoz bilan aytolmaydilar, ammo guruhda ular faolroq pozitsiyani egallashi, taklif qilingan savollar va vazifalarni hamma bilan muhokama qilishi mumkin. **“Ma’lumot qidirish”** o‘yini. Savollar barcha guruhlar uchun oldindan ishlab chiqilgan bo‘lib, ularga javoblarni turli xil ma’lumot manbalarida topish mumkinligi aytiladi. Dars oxirida har bir guruh to‘plagan ma`lumotlari, xabarlarini qiladi. Ushbu turdagi guruh ishi aqliy rivojlanishi, eshitishi va ko‘rishida muammosi bo‘lgan bolalar inklyuziv sinfda

ishlashi uchun juda mos keladi, chunki ular uchun internetdan ma’lumot topish qiyin bo‘lmaydi.

“**G‘oyalar doirasi**” o‘yini. Kichik guruhlar o‘zlarining topshiriqlarini bajarib, ma’lumotlarni yetkazishga tayyor bo‘lgach, ularning har biri muammoning faqat bitta tomonini bayon qiladi. So‘ngra, aylanaga kirib, o‘qituvchi barcha guruhlar tugaguniga qadar barcha guruhlardan navbat bilan so‘raydi. Bu har bir guruhga o‘z ishining natijalari bilan o‘rtoqlashish imkoniyatini beradi, faqat birinchi so‘zga chiqqan guruh barcha ma’lumotlarni taqdim etadigan holatlar bundan mustasno.

“Rolli o‘yin” –bu o‘quv faoliyatini tashkil etish shakli bo‘lib unda har bir o‘quvchiga voqelikning faol tashkilotchisi sifatida chiqishiga imkoniyat yaratiladi. Bu o‘yin rivojlanishida muammosi bo‘lgan o‘quvchiga o‘qituvchi va sinf oldida ularni qamrab oladigan ichki cho‘chish, jur’atsizlikni yengishiga yordam beradi.

O‘quvchilarning yutuqlarini baholash. Aqliy, ruhiy, autistik, eshitish yoki ko‘rishida muammolari bo‘lgan o‘quvchini o‘qitish va faoliyatini baholash jarayonida o‘qituvchi bolaning imkoniyatlariga mos keladigan, uning aqliy va jismoniy salomatligini, hissiy muvozanatini saqlash imkoniyatini beruvchi shunday shakl va uslublardan foydalanishi kerak-ki, bu o‘quvchilar olgan bahosidan rag‘bat olsin va yanada yaxshiroq o‘qishga intilsin. Interfaol texnologiyalardan foydalangan holda inklyuziv sinfda baholash mavzusi nafaqat erishilgan ta’lim natijalari, balki ularga erishish jarayonidir. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni baholash keyingi sinflarda ularning ishlarini rag‘batlantirishi kerak bo‘ladi.

O‘quv jarayonini tashkil etishda quyidagilarga e’tibor berish:

• O‘quvchilarning javoblariga berib borilgan og‘zaki rag‘batlantirishlarni inobatga olish;

• qoidalarga rioya qilmaganlik uchun beriladigan tanbehlarni minimallashtirish;

• baholashni salbiydan ko‘ra ko‘proq ijobiyga yo‘naltirish;

• o‘quvchilarning imkoniyatlari, malaka va ko‘nikmalaridan kelib chiqib ijobiy yo‘naltirilgan holda baholash;

• vaziyatga ko‘ra topshiriq va vazifalarni bajarish jarayonida o‘quvchiga ish joyini tark etish va hatto tashqariga chiqishga imkon berish;

• sharoitlar talab qilganda o‘quvchiga ayni payida uning xatti-harakati, xulqi qabul qilinishi mumkin emasligini anglatadigan maxsus kodlashtirilgan (ishoralar, so‘zlar) tizimini ishlab chiqish va zarur paytlarda undan foydalanish;

• xulqidagi mayda muammolariga e’tibor bermaslik;

• o‘quvchining hatti-harakatida sodir bo‘ladigan nomaqbul vaziyatlarda ta’sir ko‘rsatish va tartibga chaqirish usullarini ishlab chiqish (bolaning ruhiy holatidan kelib chiqqan holda);

• o‘quvchining xulq-atvorida sodir bo‘layotgan ogohlantiruvchi hatti-harakatlar sababini aniqlash va zaruriy chora ko‘rish, dori-darmonga ehtiyoji borligidan kelib chiqqan hollarda topshiriqlarni yengillashtirish.

Mustaqil fikrlashiga imkon berish, o‘rganish, o‘ylash, mulohaza yuritish, qaror qabul qilish ishtiyoqini so‘ndirmaslik maqsadida o‘quvchi faoliyatini baholashda “Yo‘q!”, “Noto‘g‘ri!”, “Yaxshi bajarmading!” kabi iboralarini ishlatmaslikka harakat qilish zarur.

O‘quvchi o‘zi mustaqil fikrlasin, o‘zining javobini shakllantirishiga imkon bering. Bu bolalarning har birining faqat o‘ziga xos fazilatlari, imkoniyatlari va rivojlanish yo‘nalishlari mavjudligini esda tutish talab etiladi. Shuning uchun ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda differensial ko‘rinishdagi vazifalar taklif qilinishi lozim. Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarning har biriga muvaffaqiyatga erishishi uchun imkoniyat va qulay vaziyat hamda sharoit yaratish lozim, chunki ularning har biri o‘z imkoniyati, iqtidoriga qarab intiladi va muvaffaqiyatga erishadi.

Texnologik jihatdan o‘qituvchi o‘quvchilari uchun ijobiy baholanish muhitini yaratishda vazifalarni ularning ehtiyoji va imkoniyatiga ko‘ra og‘zaki, amaliy yoki yozma topshiriqlardan foydalanishi tavsiya etiladi. Bu ijobiy psixologik muhit sharoitida o‘quvchilarga quvonch va ma’qullash muhitida amalga oshiriladigan bir qator quyidagicha amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

• rag‘batlantiruvchi so‘zlar va yumshoq intonatsiyalar;

• nutq ohangi;

• topshiriqlarning bolaning imkoniyatiga mosligi;

• ochiq, xayrixoh va samimiy yuz ifodalari kabilar.

Bolaga biron bir vazifani bajarish taklif etilganda, birinchi navbatda: “qo‘rquv va yotsirash hissini yo‘q qilish” talab qilinadi. O‘quvchi o‘zidagi ishonchsizlik, uyatchanlik kabi hayajonlarini yengishga erishgandan keyin savol-javobga o‘tish. Tavsiya etilayotgan baholash bo‘yicha tayyorgarlik jarayonlari alohida ehtiyojli o‘quvchilarning inklyuziv sharoitda muvaffaqiyatli ta’lim olishiga imkoniyat va zamin yaratadi.

O‘quvchilar bilimini baholashda quyidagilardan kelib chiqiladi:

- o‘quvchining quyidagi mezonlar asosida bergan javoblari va yozma ishlari “5” bahoga loyiq bo‘lganidan kelib chiqib undan past baho qo‘yilishi o‘quvchining imkoniyati va faolligidan kelib chiqqan holda, o‘qituvchining o‘z baholashiga havola etiladi;

- 1-sinfning ikkinchi yarim yilligi va 2-sinf o‘quvchilarining bilimi quyidagi mezonlar asosida –“5” baho bilan baholanadi.

1. Ona tili va o‘qish savodxonligi fanidan:

- harflarni aniq talaffuz qilsa, bo‘g‘inlab o‘qiy olsa, so‘z va tovushlarni to‘g‘ri talafuz qilganda;

- so‘zlarni to‘g‘ri bo‘g‘inlarga ajrata olsa;

-kichik hajmdagi matnni, ertakni yoki hikoyani o‘zi mustaqil bo‘g`inlab o‘qisa;

-o‘qigan qisqa hajmli matn asosida qayta so‘zlab bera olsa; (savollar yordamida bo‘lsa ham)

- s**avollarga javob berishda** javobni rasm orqali to‘g‘ri ko‘rsatib beraolsa;

- qisqa va bir so‘z bilan javob bera olganda, o‘z fikrini bayon eta olganda har bir ko‘rsatilgan rasmlarni javobini aytaolsa;

- topishmoqlarga to‘g‘ri javob beraolsa;

- 4-5 ta (kichik hajmli bo‘lsada) she`rni yoddan aytib berolsa;

- yozma nutqda so‘zlarni to‘g‘ri yoki 1, 2 ta xatolar bilan xatosiz ko‘chirib yozganda;

- ayrim hollarda1-2 ta xatoga yo‘l qo‘yilganda ota-onani ko‘magidan foydalanib yozsa;

- mustaqil so‘zlarni ko‘chirib yoza olsa;

- rasmlarning nomlarini mustaqil ravishda yozganda, qiyinchilik tug‘ulganda ustozidan qisman ko‘mak so‘rashi;

- rasm bo‘yicha mustaqil ravishda qisqa va xatosiz gap tuzish;

- gapni yozganda 1-2 xatoga yo‘l qo‘yilganda va so‘zlarni to‘g‘ri bo‘g‘inga bo‘lib ko‘chira olsa;

- xattaxtadan xatosiz mustaqil yoki 1-2 xatoga bilan bo‘lsa ham ko‘chirsa;

- 3-4 gapdan iborat matndan 1-2 xatoga yo‘l qo‘yilib yozilganda mustaqil gap tuza olganda;

- tinish belgilarini bilsa va ularni yozma nutqda qo‘llay olsa;

2. Matematika fanidan:

-sonlarni o‘qish, yozish va xona birliklariga ajrata olish;

-sonlarni o‘zaro taqqoslash;

-sanoq texnikasini bilish; (to‘g‘ri va teskari tartibda sanash, sondan oldin va keyin keladigan sonlarni bilish va hokazo);

- qo‘shish va ayirishga oid 100 ichida berilgan misollarni to‘g‘ri ko‘chirib yechganda;

- “ayirma” va “yig‘indi” atamalari ma’nosini tushunsa;

-bir yo‘lli masalaning mazmunini tushunib yechganda;

- ayrim hollarda do‘stlari yoki ustozdan ko‘mak so‘rab yechganda;

-ketma-ketliklarni tushunib, ularni mustaqil davom ettira olganda;

- matematik diktantni yoza olsa;

- sodda geometrik tushunchalarni bilsa va ularni nomini to‘g‘ri aytaolsa;

-sodda geometrik shakllarni mustaqil chizolsa;

-chizg‘ichdan foydalana olsa va uzunlik o‘lchov birliklarini bilsa;

3. Tabiiy fan:

- jonli va jonsiz tabiatni bilsa;

- tabiat hodisalarini bilsa;

- tabiatni asrash, uning ne`matlaridan tejab foydalanishning ahamiyatini tushunsa;

- uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlarni bilsa;

- o‘simliklar va hayvonlarning inson hayotidagi o‘rnini bilsa;

- o‘zi yashaydigan joy tabiatini bilsa;

- termometr, tarozi, kompas, xarita nimaligini bilsa va ammalda qo‘llay olsa;

- kundalik turmshda xavfsizlik qoidalariga amal qilsa; (elektr asboblari va gazdan foydalanganda);

- mavzuga oid imkoniyatiga mos berilgan savolga javobni rasm orqali to‘g‘ri javobni ko‘rsatib, qisqa va bir so‘z bilan javob bera olganda;

- ish daftarida berilgan qiziqarli topshiriqlarni bajarganda;

- darslikdagi lug‘at so‘zlarni borliqdagi tabiiy narsalarga moslab ko‘rsata olsa va nomini yoddan aytsa.

- tushunchalarni umumiy nom bilan atay olsa;

4. Tasviriy san’at fanida

-ta’sviriy san’at va unga oid oddiy atamalarni bilsa;

-rasm chizsa va chizgan rasmini bo‘yaganda tabiatdagi mutanosib ranga muvofiq bo‘lsa;

-bo‘yaganda rasm chegaralaridan chiqib ketmasa;

- ranglarning nomlarini bilsa;

- boshqa ranglardan ajratib ko‘rsataolsa;

- asosiy (qizil, zangori va sariq) ranglar va ularning aralashuvidan hosil bo‘lgan yangi (yashil, binafsha, zarg‘aldoq) ranglardan o‘z ish faoliyatlarida to‘g‘ri foydalana olishsa;

5. Texnologiya fanida:

- dastlab texnologiya darsida foydalaniladigan barcha qurollarni bilsa;

- foydalaniladigan ish qurollarni nima maqsadda foydalanishini bilsa;

-bajarayotgan ishini namunadagiga o‘xshatishga harakat qilsa;

- sog‘lom o‘quvchilarga berilgan topshiriqlarni 50 foiz bajaraolsa.

6. Tarbiya fani:

-vatan tushunchasiga ega bo‘lishi;

- davlat ramzlarining nomini bilishi;

- odob – axloq me’yorini bilishi va o‘z- o‘zini nazorat qila olishi;

- tozalik va orastalik me`yorlarini bilishi;

- uy-ro‘zg‘or ishlarida kattalarga qarashishi;

- oila a’zolarini va kundalik hayotga oid tushunchalarni egallasa;

- insonlar mehnati va faoliyat turlarini bilsa;

- insonning pulga ehtiyojini va bozor, narx tushunchalarini anglasa;

- sog‘lom tengdoshlariga berilgan vazifalarni tyutor, maxsus o‘qituvchi, partadoshi bilan birgalikda egallasa;

- o‘tilgan mavzuga oid asosiy tushunchani bilsa ham, rag‘batlantirishga amal qilib baholanadi.

7. Jismoniy tarbiya fanida:

- inson salomatligi va jismoniy kamoloti haqida tushunchalarni bilsa;

- sport va chiniqishning ahamiyatini bilsa;

- shaxsiy gigiena qoidalarini bilsa va amal qilsa;

Jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchining tashxisi va individual xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi tomonidan tashxisiga mos berilgan topshiriqlarni qisman bo‘lsa ham bajarsa baholanadi. Tayanch harakatida muammosi bo‘lsa, maxsus ajratilgan maydon tashkil qilinadi va shu joyda harakatiga qarab ijobiy baholanadi.

8. Chet tili va rus tili fanida:

Chet tili va rus tili fanlarida alohida ehtiyojli o‘quvchilar bilimi 3-sinfgacha baholanmaydi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, ulardan ham mavzu va topshiriqlar layoqati doirasida so‘rab, mustahkamlanadi. Amaliy mashg‘ulotlarda faol ishtirok etishiga qarab qoniqarli baho qo‘yiladi.

-sodda savollarni tushunin javob bersa;

- yordam so‘rab murojat qila olsa;

- sodda savol-javob qilaolsa;

- o‘zini tanishtira olsa;

- lug‘atlar yodlasa ijobiy baho qo‘yiladi.

9. Musiqa fani:

-musiqa badiiy san’at ekanligini bilishi;

-musiqaga oid oddiy atamalarni bilishi;

-cholg‘u asboblarini nomini bilishi;

Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilarga musiqa fanini o‘rgatishda alohida individual yondashuv muhim rol o‘ynaydi. Chunki, koxlear implant maxsus eshitish uskunasi va eshitishida nuqsoni bor o‘quvchilar jamoa bo‘lib kuylay olmasliklari mumkin. Ularni alohida kuylatib, tengdoshlari singari intilishi, harakatlarini inobatga olgan holda imkon qadar ijobiy baholanadi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni ta’kidlashni istardimki, alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarni jamiyatga muvaffaqiyatli moslashishi va integratsiyalashuvining eng maqbul yo‘llari, vositalari, usullarini izlash har kimning vazifasidir. Axir, bu faqat “maxsus bola” ning qora va oq dunyosini yorqin va yengil ranglar bilan to‘ldirishga yordam beradigan birgalikdagi sa’y-harakatlardir.

Hozirgi vaqtda ta’lim tizimida yangi gumanistik paradigma sifatida ta’riflangan yangi uslubiy asosida rivojlanmoqda. Zamonaviy ta’riflardan biriga ko‘ra, ta’lim - bu shaxsning rivojlanishi uchun tashqi va ichki sharoitlarni yaratadigan ijtimoiy hayotning alohida sohasi. Shuning uchun, ko‘proq darajada, ta’lim maydonida har bir inson uchun shunday sharoitlarni yaratish kerakki, u o‘z hayotining, faoliyatining, avvalambor, uning ehtiyojiga ega bo‘lishi uchun ajralmas, to‘laqonli subyektga aylansin. Tabiat va jamiyat, madaniy ijod bilan samarali muloqotga tayyorlik va qobiliyatdir. Jon Devining “Agar biz bugun kecha o‘rgatganimiz kabi o‘qitsak, ertani bolalardan o‘g‘irlaymiz" degan so‘zlarini eslatib o‘tmoqchiman.

Aqliy, eshitish yoki ko‘rishida muammolari bo‘lgan o‘quvchini o‘qitish va faoliyatini baholash jarayonida o‘qituvchi bolaning imkoniyatlariga mos keladigan, uning aqliy va jismoniy salomatligini, hissiy muvozanatini saqlash imkoniyatini beruvchi shunday shakl va uslublardan foydalanishi kerak-ki, bu o‘quvchilar olgan bahosidan rag‘bat olsin va yanada yaxshiroq o‘qishga intilsin. Interfaol texnologiyalardan foydalangan holda inklyuziv sinfda baholash mavzusi nafaqat erishilgan ta’lim natijalari, balki ularga erishish jarayonidir. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni baholash keyingi sinflarda ularning ishlarini rag‘batlantirishi kerak. Inklyuziv ta’lim doirasida adabiyot darslarida interaktiv o‘qitish usullaridan foydalanish muhimligini yana bir bor ta’kidlash lozim-ki, ushbu o‘quv faoliyati natijasida kognitiv jarayon faollashadi, intellektual nuqsonli maktab o‘quvchilarining motivatsiyasi ortadi. Maxsus ehtiyojga ega bolalarda o‘z-o‘zini hurmat qilish va o‘ziga bo‘lgan ishonch ortadi.

Umumta’lim maktabiga maxsus ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar kelishi bilan o‘qituvchilar har bir bola bilan shaxs sifatida muloqot qilish muhimligini anglay boshlaydilar. Maxsus ta’lim o‘qituvchilari umumiy ta’lim tizimi imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun samarali ekanligini his qiladilar. Asosiy o‘qituvchilar, o‘z navbatida, alohida ehtiyojli o‘quvchilarning natijalarini yaxshilash uchun yangi usullar uchun maxsus ta’lim tizimiga murojaat qilishadi. Dars davomida muloqot psixologiyasi, muomala uslubi haqida alohida to‘xtalish lozim. Bu yerda yodda tutish kerak: o‘quvchilarni rag‘batlantirishning faollik va majburlashga nisbati. Majburlashsiz o‘rganish (qiziqish, muvaffaqiyat, ishonch asosida). Bugungi kunda inklyuziv ta’limni rivojlantirishda inson omili muhim rol o‘ynashi, ya’ni “Ideal o‘qituvchi” shakllanayotgani ayon bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 1999-yil 16-avgustdagi 390-sonli qarori.

4. Inklyuziv umumta’lim maktablari kamsituvchi munosabatlariga qarshi kurashish va jamoalarda qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratish, inklyuziv jamiyat qurish va barchaga ta’lim berishning eng samarali vositasi sifatida Salamanka bayonoti. (Ispaniya), 1994-yil 7-10-iyun.

5. “Dakarskie ramki deystviy”- Senegal, 2000-yil 26-28-aprel.

6. “Inklyuziv ta’limning dolzarb masalalari: muammo va ularning echimlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. “Lesson-Press” nashriyoti, Toshkent-2021.